

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026- yil yanvar

- I. Sanoat ishlab chiqarishi
- II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- III. Bajarilgan qurilish ishlari
- IV. Chakana savdo tovar aylanmasi
- V. Tashqi savdo aylanmasi
- VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- VII. Korxona va tashkilotlar soni



I. Sanoat ishlab chiqarishi

2026- yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan **85 057,6** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **83,1 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **7,6 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **8,7 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,6 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,9 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **5,5 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **7,7 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **14,1 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish hajmining oshishi (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan **3,1 b.**), shuningdek boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalardagi o'sish (**2,3 b.**) sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarida (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan **94,9 %**) hamda boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarishda (**83,5 %**) hajmlarning pasayishi kuzatildi.



II. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026- yil yanvar oyida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **0,7 %** ni tashkil etdi.

2026- yil yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **0,8 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **0,32** foiz punkt (f.p.) ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda **0,4 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichga **0,14** f.p. ta'sir qilgan, xizmatlar esa **0,8 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni **0,21** f.p. oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

2025- yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **140,8 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar"), quyi chegarasi – **100,1 %** ga ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") yetdi.

2026- yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,32** f.p. ga (umumiy o'sishning **47,8 %** i) oshirdi. "Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar", "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,18** f.p. ga oshirdi. Qolgan bo'limlarida narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,17** f.p. ga oshirdi.



III. Bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar oyida **13 021,0** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **3 004,3** mlrd so'mi yoki **23,1 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **5 996,6** mlrd so'mi yoki **46,0 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **4 020,1** mlrd so'mi yoki **30,9 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



IV. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **32 698,4** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,7 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan **37,7 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **20,7 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan **9,4 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **66,9 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **12,4 %** ulush bilan **4 063,0** mlrd so'mni tashkil etdi.



V. Tashqi savdo aylanmasi

2026- yilning yanvar oyi yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **5 830,5** mln AQSH dollarini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan **1 318,6** mln AQSH dollariga yoki **29,2 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **1 693,1** mln AQSH dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,7 %** ga oshdi. Import **4 137,4** mln AQSH dollariga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **30,3 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **56,2 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **18,1 %**, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **10,0 %**, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – **10,0 %** va har xil tayyor mahsulotlar – **7,1 %** bo'ldi.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**35,9 %**), sanoat tovarlari (**13,9 %**), shuningdek, kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**11,8 %**) tashkil etdi.



VI. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **80 474,8** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **14,8 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning **20,2 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **3,6 f.p.**), yashash va ovqatlanish xizmatlari **17,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,8 f.p.**), savdo xizmatlari **16,8 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,7 f.p.**), transport xizmatlari **9,4 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,0 f.p.**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **13,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,1 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi transport xizmatlari (**15 633,3** mlrd so'm, **109,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**14 935,8** mlrd so'm, **120,2 %**), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**13 819,2** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,3 %** ga yetdi) va savdo xizmatlari (**12 863,6** mlrd so'm, **116,8 %**)ga to'g'ri keladi.



VII. Korxona va tashkilotlar soni

2026- yil 1- fevral holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **482,4** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **411,1** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p

soni esa Toshkent shahri (**110 188** ta), Toshkent (**47 273** ta), Samarqand (**41 982** ta), Farg'ona (**38 351** ta), Qashqadaryo (**30 884** ta), Buxoro (**29 243** ta) va Andijon (**27 455** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **155 609** ta, sanoat sohasida – **60 552** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **35 941** ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **30 917** ta hamda qurilish sohasida – **31 053** tani tashkil etdi.

2026- yil yanvar oyida respublikada **7,2** mingta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **7,1** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026- yil 1- fevral holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **18 513** tani tashkil etdi. Ularning **4 282** tasi qo'shma korxonalar va **14 231** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini
muvofiglashtirish va tarqatish
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

